
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Nevara bobosiga aliment to'lashi mumkinmi?

SAVOL: Bobo o'z nevarasidan aliment talab qilishi mumkinmi?

JAVOB: Oila kodeksining 124-moddasiga ko'ra, o'zlarining voyaga yetgan bolalaridan yoxud eri yoki xotinidan (sobiq eri yoki xotinidan) ta'minot ololmaydigan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bobo va buviga ta'minot berish majburiyati yetarli mablag'ga ega bo'lgan voyaga yetgan mehnatga layoqatli nevaralar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Demak, o'z bolalari yoki bir-biridan aliment ololmaydigan mehnatga layoqatsiz va yordamga muhtoj bo'lgan bobo yoki buviga aliment berish majburiyati yetarli mablag'ga ega bo'lgan voyaga yetgan mehnatga layoqatli nevaralar zimmasiga yuklatilishi ham mumkin.

MIB So'x tumani bo'limi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-09-18 17:10:18